

8-Dekabr - O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi kuni

**TONG**

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

**YULDUZI**

2009-yil  
7-dekabr  
N:49  
(66746)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## Muqaddas Qomusim

Faraxbaxsh bugunim, nurli kelajak,  
Yurtim uzra zafar nasmi yelajak,  
O'zbekim o'zligin sen-la bilajak,  
Muqaddas Qomusim - buyuk Baxtnomam!

Erkim, e'tiqodim, e'zozim mening,  
Baralla yangraydi ovozim mening,  
Fozil donishmandim, chin qozim mening,  
Muqaddas Qomusim - buyuk Baxtnomam!

Qay yurtlarni kezmay, sensan qo'riqchim,  
Faqat oq yo'llarga yo'llar yo'riqchim,  
Sen bor qadrim baland, qalqon-qilichim,  
Muqaddas Qomusim - buyuk Baxtnomam!

Sen faxr, iftixordirsan yurakka,  
Men Vatan dey, qudrat baxsh et bilakka,  
Evrilgin Dilafro'z ezgu tilakka,  
Muqaddas Qomusim - buyuk Baxtnomam!

Dilafro'z USMONOVA,  
O'zbekiston Milliy  
universiteti 1-bosqich talabasi



## BILIMLAR QASRINING KALITI

Andijon shahridagi Bobur nomli kutubxonada an'anaviy kitoblar bayrami bo'lib o'tdi. Yuz bilan yuzlashgan ushbu ziyo maskani bolajonlar, ustozlar va kutubxona xodimlari bilan gavjum bo'ldi.




- Kutubxonamiz 20 mingdan ziyod kitobxonlarga xizmat qiladi, - deydi kutubxona markazi direktor o'rinbosari Gulnora opa Ismoilova. - Har yili ikki mingdan ortiq adabiyotlar o'quvchilarning eng yaqin do'stiga aylangan.

Xuddi shunday bayram Farg'ona va Namangan viloyatlarida ham bo'lib o'tdi. Bu kabi sermazmun, jonli muloqotlar, shubhasizki, kelgusida kitobxonlar safining kengayishiga xizmat qiladi.

**FERUZA, MA'MURA**  
Andijon-Farg'ona-Namangan  
(Internet orqali olindi)







## HUQUQIMIZNI O'RGANAMIZ

*Aziz bolajonlar, keling, dastlab huquqiy tarbiya o'zi nima, degan savolga oydinlik kiritib olaylik.*

Huquqiy tarbiya, avvalo, o'quvchi-yoshlarda huquqiy ongini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunlari va me'yoriy hujjatlarini chuqur anglab, tushunib, ular asosida qonun ustuvorligini e'tirof etadigan xulq-atvor ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Bu borada olib borilayotgan ibratli ishlar xususida Termiz akademik litseyi ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini Sh. Sattorov quyidagilarni gapirib berdi:

– Huquqiy tarbiya sohasidagi ishlarimizning debochasi, avvalo, mustaqil O'zbekistonning davlat ramzlari – bayrog'i, madhiyasi, gerbiga bo'lgan munosabatimizni shakllantirishdan boshlanadi. Respublika miqyosida «Siz qonunni bilasizmi?», «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori», «Shaxs va jamiyat» kabi ko'rik-tanlovlarning o'tkazib kelinayotganligi yoshlarimizning huquqiy sohaga qiziqishlarini orttirib boryapti. Viloyatdagi bir qator o'quv muassasalarining ko'rik-tanlovlarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari fikrimizga dalil bo'la oladi. Sariosiyo qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji o'quvchilari «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasini shakllantirish borasida litseyimizda ham talaygina ibratli ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, «Konstitutsiya – baxtimiz», «Farzandlik burchi», «Davlat ramzlari iftixorimiz», «Yoshlarimiz hayotida siyosiy partiyalarning o'rni», «Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi» kabi mavzular har dushanba kunlari o'tkaziladigan ma'naviyat soatlarining ish rejasiga kiritilgan. O'z navbatida Oliy majlis sessiyasi materiallarini barcha akadem guruhlarida alohida dars sifatida o'tilishi ham bu sohadagi ishlarimizga katta yordam bermoqda.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz rivojida milliy istiqlol g'oyalari va huquqiy tarbiyani qo'shib olib borish barkamol insonni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.



10-Dekabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun

## QO'SHALOQ BAYRAM

Ayni kunlarda yurtimizning deyarli barcha go'shalarida bo'lgani kabi poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 112-umumta'lim maktabida ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kunlarning 17 yilligiga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirga tuman hokimligidan, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuman bo'limidan, O'quvchilar ijodiyoti markazidan ko'plab mehmonlar tashrif buyurishdi. Tadbir ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga tarixchi va huquqshunoslardan asosli javoblar oldilar.

Viktorina savollariga tez va to'g'ri javob topgan o'quvchilar «Faxriy yorliq» hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Shirmonoy ASRANOVA

## YONG'INNI OLDINI OLAYLIK

Hozirgi kunda qayd etilayotgan yong'inlarning aksariyati fuqarolar turar joylarida yuz berayotganini alohida ta'kidlash joiz. Zero, gazli isitish va elektr asboblardan noto'g'ri foydalanish, mas'uliyatsizlik, befarqlik, umuman, yong'in xavfsizligini oddiy qoidalariga ham rioya qilmaslik, ularni ko'r-ko'rona ravishda buzish oqibatida uy-joylarda yong'in chiqish hollari ko'plab uchramoqda. Birgina o'chirilmagan tamaki qoldig'i yoki elektr simlarining qisqa tutashuvi natijasida ham o't chiqishi mumkin. Binobarin, ayda, ishxonada, jamoat joylarida yong'in xavfsizligiga rioya qilib, falokatning oldini olishga harakat qilaylik.

M.RISBEKOV,  
24-XYOXQ kichik inspektori, kichik serjant

## KO'RGAZMA DAVOM ETMOQDA

Qashqadaryo viloyatidagi S.Nasafiy nomli axborot-kutubxona markazida bo'lib o'tgan kitob yarmarkasida viloyat hokimi N.Zayniyev, «O'zbekiston» NMIU Bosh muharriri I.Shoyardonov, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti direktor o'rinbosari M.Aminov va boshqalar so'zga chiqdilar. Ular o'z nutqlarida ta'lim muassasalarini sifatli darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanayotgani, o'quvchi-yoshlarni yangi chop etilayotgan kitoblar bilan tanishtirish, ular o'rtasida olib borilayotgan ma'naviyat ma'rifiy tadbirlar ta'sirchanligini kuchaytirish borasida fikr-mulohazalar bildirdilar.

## QONUN HIMOYASIDA

Poytaxtimizdagi O'zbekiston Respublikasi bolalar kutubxonasi hamisha o'quvchilar bilan gavjum. Bu yerda turli mavzudagi tadbirlar doimo qizg'in o'tadi. Ularni esda qolarli darajada o'tishi uchun kutubxona bekalari Nafisa Qo'ldosheva va Laylo Shokirovalar qiziqarli ma'lumotlar to'plashdan charchashmaydi.

Biz ham bu yerda Konstitutsiya kuniga bag'ishlab o'tkazilgan «Sen qonun himoyasida» nomli tadbirning guvohi bo'ldik. Unda Yunusobod tumanidagi ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan 17-umumta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etib, Vatan, do'stlik haqida she'rlar o'qishdi, qomusimizdagi moddalardan namunalar keltirishdi.

Maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Hulkar opa Alimbekovaning ta'kidlashicha, maktabda 30 dan ortiq to'garaklar muntazam faoliyat yuritib kelmoqda. Turli uchrashuvlar, tadbirlar o'quvchilar dunyoqarashini boyitishi tayin.

An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan mazkur anjuman ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Qizil Yarim Oy jamiyati Temiryo'l kengashi tomonidan taqdim etilgan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Yusuf ABDULLAYEV

## KUNDALIK DAFTAR:

## U O'QUVCHINING REYTINGINI OSHIRADI...MI?



*Kundalik daftar o'quvchining bilimi-yu intizomini ko'rsatib turuvchi bir oyna, desak xato qilmaymiz.*

*Biroq, oramizda ko'zbo'yamachilik uchun «yangi» kundalikni «ehtiyotlab» ko'tarib yurganlar ham topiladi.*

*Sinchkov tengdoshingiz Ulug'bek MUSAQULOV shu haqda fikr yuritadi. O'qing, mulohazalaringizni bizga yozib yuboring.*

**Asal SOBIROVA,**  
o'qituvchi:

– Bizning maktabda «kundalik tutasan», degan gap yo'q. O'quvchi o'z xohishi bilan kundalikni to'ldirib boradi. Bu esa uning kun tartibini rejalashtirishda yordam beradi. Buni o'quvchilarimiz juda yaxshi tushunishadi.

**Komila UMARALIYEVA,**  
o'qituvchi:

– Maktabimizda reyting kundalik tutiladi. Kundalik bu o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi muloqot, desam adashmayman. Menimcha, har bir o'quvchida bu daftar bo'lishi shart.

**Davron ERGASHEV,**  
o'qituvchi:

– Fanlarni o'zlashtirishda qiynalaman. Baholarim ham shunga yarasha. Shu sababdan ham kundalik tutishni xohlamayman.

**Behruz OCHILBOYEV,**  
o'quvchi:

– Kundalik tutganimdan beri faqat yaxshi baholarga o'qiy boshladim. Yangi o'quv yilining ilk kunlaridanoq o'z-o'zimga so'z bergandim: «Kundaligimda yomon baholar bo'lmaydi», deb. Maqsadimga erishyapman.

**Yashnar BOBOYEV,**  
o'quvchi:

Reyting kundalik barcha talablarimizga javob beradi. Ustozlarimiz kundaligimizni doimo nazorat qilib turishadi. O'z navbatida ota-onamiz ham qaysi fandan qanday o'zlashtirayotganimizni kuzatib borishadi.



# O'QUVCHILAR KIYIMI

Har bir millatning o'z urf-odatlari, milliy liboslari mavjud bo'lib, ular o'ziga xosligi, xilma-xilligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Inson kiyim tanlashda asosiy e'tiborni uning qulayligiga qaratadi. Qolaversa, har bir kiyimning o'z kiyiladigan joyi bo'lib, ishda kiyiladigan kiyimlar mehmonga yoki uyga kiyilmaydi. Bu esa insonlarning o'tkir farosat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Butun dunyo o'quvchilari ham maktabga alohida qabul qilingan formalarda borishadi. Bugun sizga ayrim davlat o'quvchilarining maktab formalari haqida ma'lumot bermoqchimiz.



**Angliya** o'quvchilarining nafaqat ko'ylak, shim va yubkalari, balki bosh kiyim, oyoq kiyim, bo'yinbog'larigacha bir xilda bo'ladi. Britaniyalik o'quvchilarning hech biri maktabga bo'yinbog'siz bormaydilar. Bu mamlakatda o'quvchilar maktab formasini o'z g'ururlari deb hisoblaydilar.

**Amerika Qo'shma Shtatlarida** o'quvchilarning kim o'zarga kiyinishlarini oldini olish maqsadida, maktab formasi tashkil etilgan. Bu masalaga o'tgan asrning 80-yillaridan e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, 1996-yildan boshlab barcha maktablarda maktab formasi kiyish odat tusiga aylandi. Maktab rahbarlari tomonidan maktabga juda ochiq, kalta va tor kiyimlar kiymasdan, qulay kiyim kiyish belgilandi. Ayrim maktablarda amerikalik o'quvchilar uchun jinsi matosidan tikilgan cho'ntakli keng shim, yubka va futbolka maktab formasi deb qabul qilingan.



## QANDAY BO'LISHI

**Hindiston, Irlandiya, Avstraliya, Singapur hamda Janubiy Afrika** davlatlari mustaqil bo'lib ajralib chiqqanlaridan keyin ham o'quvchilar eski maktab formalarini kiyishni kanda qilmadilar. O'quvchilarga o'tmishlarini eslatib turuvchi bu kiyimlar juda qulay va ko'rkamligi bilan ajralib turadi.



**Avstraliyaning** boshlang'ich sinf o'quvchilari darslarga jinsi matodan tikilgan kiyimlarda keladilar. Yuqori sinf o'quvchilari uchun maxsus maktab formasi belgilangan, ular qora kostyum va shimdan iborat.

**Germaniya**da ayrim maktablardagina maktab formasi kiyiladi. Bu kiyimlar o r t i q c h a bezaklarsiz bo'lib, ular qora kostyum va shimdan iborat. Maktab formasi qulay va orasta bo'lishi uchun bu haqda o'quvchilar fikrlari ham inobatga olinadi.



## KERAK?

**Afrikada** moliyaviy inqirozning oldini olish maqsadida, barcha maktablarda bepul ta'lim olib boriladi. O'quvchilar orasida tabaqalanish vujudga kelmasligi uchun o'quvchilar bir xilda maktab formasi kiyadilar. Afrikalik bolalarning kiyim javonlarida turli kiyimlar bo'lmasa-da, birgina maktab formasi doimiy osig'liq turadi.



**O'zbekistonda** ham maktab formasi kiyish an'anaga aylangan. Toshkent shahrida maktab o'quvchilari formasidagi oq-qora rangdagi formalar to'q qizil rangdagi shotlandkaga hamda to'q ko'k ranglardagi kostyumshimga almashdi. Maktab formasi uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga yorqinroq ranglar, katta sinflarga esa to'qroq ranglar tanlangan. Ranglarni tanlashda maktab rahbarlari va ota-onalar kengashlarining fikrlari inobatga olingan bo'lib, asosiy e'tibor o'quvchilarning yoshi va dunyoqarashiga qaratilgan. Yangi formaga tanlangan mato ham issiq, ham sovuq iqlimga mo'ljallangan.

**Yaponiya** o'quvchilari uchun «seylor-fuku», ya'ni matroscha kiyim maktab formasi hisoblanadi. O'g'il bolalar qora shim va tik yoqali kostyum kiyadilar. Bu ko'rinishlari bilan ular bir qarashda XIX asr soldatlarini eslatadilar. Yaponiyada multfilm qahramonlarini ham maktab formasida tasvirlash odatga aylangan.



## TEST

1. «Daryo ko'rmagan gul», «Darvesh» hikoyatlari Sheroziyning qaysi asarida keltirilgan?

- A) «Bo'ston»;
- B) «Guliston»;
- D) «Sayohatnoma»;
- E) «Qarz».

2. «Bir illati border xudpisand so'zin, Hasad ko'r qilgandir haqiqat ko'zin. Har ko'z-u qosh yaxshi, demagil, do'stim, Pista mag'zini ye, tashlagil po'stin».

Yuqoridagi parcha Sheroziyning «Bo'ston» asarining qaysi bobidan?

- A) ayb qidirmaslik haqida;
- B) mufradot;
- D) hayit kuni adashib qolganim va otamning sabog'i;
- E) hikmatlar.

3. Sheroziy qayerda va qanday oilada o'sib ulg'aygan?

- A) Sherozda kambag'al dehqon xonadonida;
- B) Sherozda hunarmandlar xonadonida;
- D) Sherozda o'ziga to'q va ma'rifatli xonadonda;
- E) Samarqandda hunarmandlar xonadonida.

4. «Atir gul», «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul», «Yashil gul», «Safsar gul» to'plamlariga Hamza qanday umumiy nom berdi?

- A) «Yengil adabiyot»;
- B) «O'qish kitobi»;
- D) «Ustodi avval»;
- E) «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi».

5. Hamza dastlab qanday taxallusda ijod etgan?

- A) Nixoniy;
- B) Niyoziy;
- D) Hamza;
- E) Hakimzoda.

6. «Jonlarni jononi Vatan» she'ri qaysi to'plamdan o'rin olgan?

- A) «Oq gul»;
- B) «Yashil gul»;
- D) «Qizil gul»;
- E) «Safsar gul».

7. 1911-yilda Hamza qayerlarda bo'ldi?

- A) Samarqand, Buxoro, Andijon, Toshkent;
- B) Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Arabiston;
- D) Germaniya, Fransiya, Afrika, Gollandiya;
- E) Eron, Tehron, Singapur, Avstraliya.

8. Hamzaning dramatik asarlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) «Maysaraning ishi», «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari»;
- B) «Yangi saodat», «Uchrashuv»;
- D) «Qizil gul», «Oq gul»;
- E) «Yengil adabiyot», «Maysaraning ishi».

9. 1910-yilda Hamza Toshkentga kelib, nimani tashkil etdi?

- A) «Mushtum» jurnalini;
- B) jadid maktabini;
- D) she'rlar yozdi;
- E) hech narsa.

10. 22-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi deb ism-familiyasi yozib qo'yilgan shoir kim edi?

- A) O. Hoshimov;
- B) O. Yoqubov;
- D) E. Vohidov;
- E) Hamza.

Internet manbaalari asosida  
GULYUZ tayyorladi



## TONG YULDUZI



Ko'kda umid yulduzi yonar,  
Bizni oppoq orzuga o'rar.  
Tong yulduzi charaqlab turar,  
Uni tongda turganlar ko'rar...

Bizni mudom iqbolga chorlar,  
Yulduz kabi orzular porlar.  
Tong yulduzi charaqlab turar,  
Uni tongda turganlar ko'rar...

Ezgulikdir ko'ngil dunyosi,  
Jaranglaydi mehnat sadosi,  
Yaxshi niyat aql ziyosi,  
Tong yulduzi charaqlab turar,  
Uni tongda turganlar ko'rar...

Zulfiyar **IBROHIMOVA**



## OFTOB



Har kuni erta tongda  
Derazamdan mo'ralab,  
Menga kulib boqadi,  
Nurli oftobim porlab.

Gullar chiroy ochadi,  
Iforlarin sochadi,  
Maftun unga ma'sazor,  
Daraxt tugul, chamanzor.

Sevara **XURRAMOVA**

## TINCHLIK

Momolarim ko'rgan urush,  
Bobolarim ko'rgan urush.  
Boshqa hech kim ko'rmasin,  
Dunyo g'amga to'lmasin.

Dildan shukronalar aytay,  
Tinch o'lkada yashayman.  
Dilimdagi zavqlarimni,  
Men tinchlikka atayman.

Madina **ABDULLAYEVA**,  
Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi  
284-umumta'lim maktabining 7-sinf  
o'quvchisi

## BOLALIK

Yam-yashil o'tloqlarda  
Yayrab o'ynagim kelar.  
Orzularim bir jahon,  
Aytib quvnagim kelar.

Bolalikning gashtini  
To'yib surayin deyman.  
A'lo o'qib, ertamga,  
Zamin qurayin deyman.

Zulfiyar **XUDOYQULOVA**,  
Surxondaryo viloyati,  
Uzun tumanidagi  
3-umumta'lim maktab o'quvchisi



## 2009-YIL-QISHLOQ TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGI YILI

### CHIROYLI GULLAR EKAMIZ

Qishlog'imiz nega Gulqishloq, deya  
buvimdan ko'p bora so'rganman. Hatto  
maktabda ham bizga qishloq haqida biror  
arzigulik yangilik aytishmagan.

Nahotki bizning go'sha afsona-yu  
rivoyatga, tarixiy ma'lumotlarga boy  
bo'lmasa, deb tengdoshlarim bilan  
fikrlashib qoldik. Chindan-da, nomlanish  
tarixiga hech narsani asos qilib topa  
olmadik. Yon-atrofimizdagi qishloqlar nomi  
ham ajoyib. Beshkapa, Qumariq, Yov,  
Somsapaz, Kekirdak, Buyrak, Miltiqchi va  
shu kabi bir-biridan g'aroyib nomlarga boy  
qishloqlar.

«Tong yulduzi» gazetasida muntazam  
e'lon qilib borilayotgan «Qishlog'im – qalb  
ardog'im» insholar tanlovidagi tengdosh-  
larimning o'z qishloqlari haqida faxrlanib  
yozgan har bir maqolalarini o'qib  
boryapman. Yurtimizda tarixiy makonlarga  
aylangan qishloqlar tarixi bilan yaqindan  
tanishib, men ham qishlog'imizni kelajakda  
o'z nomiga munosib gullar makoniga  
aylantirish rejasini o'yab qo'ydim.

Qishin-yozin qishlog'imiz gullar  
makoniga aylanadi. Biz eng chiroyli, turfa  
gullar bilan makonimizni obod qilamiz.  
Gazetada tanlov tugagach ham qishloqlar  
tarixi, u yerning samimiy odamlari bilan  
maqolalar orqali uchrashib tursak, deb  
umid qilardim.

Dinora **YIGITALIYEVA**,  
Farg'ona viloyati, Uchko'prik  
tumanidagi Gul qishlog'i



SERQUYOSH, SERJILO  
SOKTARIM



Serquyosh, serjilo Soktarim!

Sozanda sozining sirli sadolariga sehrlangandek,  
soat sayin sohiri sehrlangandek, sarxushtlanib, seni  
so'zlamogga sadafdek saralangan so'zlarim sadosi  
so'ngandek sezaman. Samimiy, sodda, sening-chun  
suyanchiq, savobni sevuvchi, so'qirni suyovchi  
sarbonlaring senga soyabon. Sening surating-u  
siyratingdan, sokin saharlarning sabosidan  
sarmastman.

Seni sevaman, Soktarim!

Qishlog'im nomi Soktardir. Bu ertaknamo diyorda  
tabiatning eng sara ijodi bo'lmish yil fasllari shunday  
jilolanadiki, ta'rifiga tilim ojiz.

Ayni kunlarda daraxtlar qishga tayyorgarlik  
ko'rayapti. Olam yuzini mayin yog'ayotgan  
yomg'irning billur tomchilari yuvib, kuz tillarang husnini  
ko'z-ko'z qilib, o'z o'rnini qishga bo'shatib bermoqda.  
Bu haqiqiy mo'jizadir.

Aziz tengdoshlar! Biz bu mo'jizalarni – o'z  
yerimizni, navnihollarimizni asrashni, avaylashni  
o'rganaylik.

Muyassar **NEGBOYEVA**,  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon tumanidagi  
4-umumta'lim maktabning 9-sinf o'quvchisi

## KONSTITUTSIYA

Konstitutsiya ma'nosi  
Qonunlarning a'losi.  
Nurli osmon ziyosi  
Purhikmatdir dunyosi.

Bunda xayol surilgan  
Ulug' qonun qurilgan.  
Adl sari yurilgan  
El taqdiri ko'rilgan...



Chamam **JONUZOQOVA**,  
Navoiy viloyati

Oz-oz o'rganib, dono bo'lur

### O'ZIMNI TUTA BILAMAN

Bolalar, kimning omadli odamlarga havasi kelmaydi,  
deysiz?! Omad ularga quyoshdek kulib boqib, yuzlariga  
nur, tanalariga harakat baxsh etadi. Bu o'z-o'zidan bo'ladi  
deb o'ylaysizmi? Sira ham. Xo'sh, ularning sirlari nimada?  
Bosh qotirib ko'rsangiz, omadli odamlar hamisha o'zlarini  
tuta biladilar. Chunki o'zini tuta bilish hayotdagi eng oliy  
ne'matlardan biridir.

#### Rivoyat:

Bir dehqon toshloq yerni obod etishga qaror qildi. Qo'shnisi  
uning ustidan kulib:

– Bu bilan hech nimaga erishmaysan, – deya uni mazax qildi.  
Dehqon sabrga qo'l berib, jahlini ichiga yutib, ishini davom ettirdi.  
Kuz oyida toshloq yerga tuproq to'kib, o'g'it berdi. Bahorda olma,  
yong'oq, shaftoli, uzum ko'chatlarini ekdi. Uch-to'rt yilda toshloq  
yerda ko'zni quvontiradigan bog'-rog' paydo bo'ldi. Mo'l-ko'l hosil  
olgan dehqon ro'zg'orini butlab, uy-joyini tuzatib oldi, el-ulusni ham  
unutmadi, yo'l va ko'priklarni tuzatishga mablag' ajratdi. Qo'shnisi  
to'y boshlanganda, bir qo'yini to'yonaga yetaklab kirdi.

Izza bo'lgan qo'shnisi undan ming bor uzr so'radi.

Ko'rdingizmi, bolalar, o'zini tuta bilgan va o'ziga ishongan  
dehqon qanchalik muvaffaqiyatga erishdi.

#### BOLALAR O'ZINI TUTA BILISHI HAQIDA

1. O'zini yonga bilgan kishidan ko'ra kuchliroq g'olib yo'q.

G.Bicher

2. O'zingizni tuta bilar ekansiz, hukmingiz ham buyuk bo'ladi.

Seneka

3. Insonning haqiqiy kuchi uning shiddatida emas, balki sobit  
avayishlatiligidadir.

I. Gyote





Maktabga ilk bor qadam qo'yganimizda o'qishni ham, yozishni ham bilmasdik. Mehribon ustozimiz Dilnoza opa Mirsagatovadan saboq olib, hozir nafaqat darsliklarimizni, balki gazeta va jurnallarni ham bemalol o'qiyapmiz.

O'zimning biyron bolajonlarim, deya erkalab qo'yadilar Dilnoza opa gohida.

Yaqinda sinfimiz bilan kelasi yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik. Endi sevimli gazetamizni yil davomida miriqib o'qiyapmiz.

Sherzod SAIDKARIMOV,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
45-umumta'lim maktabining 1-«V» sinf o'quvchisi

## QIZIQARLI MASALALAR

1. Anvar buvisidan 6 marta kichik. Uning yoshi raqamlari o'rtasiga 0 (nol) qo'yilsa, buvasining yoshi hosil bo'ladi. Anvar necha yoshda?

2. 17, 23, 13, 11, \*, 15, ... ketma-ketlikdagi (\*) o'rniga qo'yiladigan sonni toping.

3. Bir xildagi kitoblardan to'q-qiztasining narxi 1000 so'mdan kam, 10 tasining narxi esa 1100 so'mdan ko'p. Bir dona kitob necha so'm turadi?


4. 0% raqamlari ko'paytmasining ikkilanganiga teng bo'lgan ikki xonali sonni toping.

«Tong yulduzi»ga biz ham obuna bo'ldik.



Siz-chi, bolajonlar, obuna bo'ldingizmi?

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 592-bog'cha-maktab majmuasi o'quvchilarining katta tanaffusi juda maroqli o'tadi: kimdir kutubxonaga oshiqadi, kimdir rasm chizadi, yana kimdir to'garak mashg'ulotlariga shoshadi. Kuni kecha shu maktabning 2-3-sinf o'quvchilari ijodidan namunalar keltirishdi. Ular orasidan 3-«A» sinf o'quvchisi Abdulaziz Malikovning qumdan yasalgan olmaxoni, 3-«A» sinf o'quvchisi Bobur Muhammadxo'jayevning qo'ziqorini, 3-«A» sinf o'quvchisi Elyor Karimovning «Bembi»si bizga juda ma'qul bo'ldi. Sizga-chi?



Saman ot mindim,  
Soyasini ko'rmadim.  
Qizil baxmaldan to'n bichdim,  
O'yig'ini ko'rmadim.

Ovozasi azonda,  
Mazaligi qozonda.

To'r bilan o'rab olgan,  
Pashshaga zanjir solgan.

Oq sandiq,  
Og'zi yo'q sandiq.

Mahfuzaxon JALOLDINOVA,  
Andijon viloyati, Andijon tumanidagi  
24-umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

## DO'STING ESKISI YAXSHI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda bir mahmadona kuchukcha bo'lgan ekan. Bir kuni u arzimagan narsadan janjal chiqarib, hamma do'stlari bilan urishib qolibdi va o'zini dono sanab, yangi do'st qidirib ketibdi.

O'rmonda kattakon bir ilon chirigan to'nkaga o'ralgan yotgan ekan. Kuchuk sovuqqonlik bilan tikilib turgan ilonning yoniga borib, gap boshlabdi:

– Men siz bilan do'stlashmoqchiman. Do'stim deb yurgan kuchuklar meni xafa qilishdi. Bo'lar-bo'lmasga irillayverishadi. Tovzer, Bobbi va Spotlar ham menga nasihat qilishgani-qilishgan. Hozir ham ortimdan vovullab qolishdi. Bir so'z bilan aytganda, eski do'stlardan zerikdim...

Kuchuk tinimsiz javrar, ilon esa unga so'zsiz va sovuq tikilgan nimalarnidir ko'zlardi.


– Siz menga haqiqiy do'st bo'la olasizmi?

U shunday deya to'nkaga sakrab chiqib, ilonning ustiga o'tirib olibdi. Darg'azab bo'lgan ilon kuchukni chaqib olibdi. Va so'zsiz o'limga mahkum etibdi.

Qissadan hissa shuki, kiyimning yangisi, do'stning esa eskisi yaxshi.

Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani,  
Vodil qishlog'idagi 1-maktab-internatning  
9-sinf o'quvchisi  
Mohinur MUHAMMADJON qizi tarjimasi





## BOBOMGA O'XSHAGIM KELADI

Bobom ustoz jurnalistlardan biri. Ularning ism-shariflari Shavkat Amirov. Ko'p yillar Qibray tuman gazetasida va respublika yoshlar gazetasida ishlaganlar.

mustaqil Vatanimizga munosib farzandlar bo'lib voyaga yetishimiz uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berganlar. Uyimizdagi kutubxonamizda istagan kitobimiz bor. Chunki bobom ham, buvim ham kitobga ixlos qo'ygan, kitob o'qish natijasida elga tanilgan insonlar. Ular kitoblarni qadrlashni, chuqur bilim olishni bizdan ham talab qilishadi.

Men ham bobomga o'xshagan jurnalist bo'lgim keladi. Buning uchun ko'plab bolalar gazeta va jurnallarini o'qishim kerakligini yaxshi bilaman va shunga amal qilmoqdaman.

Bobom jurnalist sifatida mamlakatimizda bormagan joyi

qolmagan, desam mubolag'a bo'lmas. Ular suhbatlashib maqolalar, eshittirishlar tayyorlagan insonlarning soni mingdan oshadi. Bu bobomning gapi.

Bugungi kunda ham bobom nafaqada bo'lsalar-da, hamon safdalar. Ular xalqimizning eng mo'tabar bayramlaridan biri – Konstitutsiya kuni arafasida 70 yoshga to'ldilar. Barcha do'stlari, hamkasblari, ustoz va shogirdlari qatori biz ham qutladik.

Biz shunday e'zozli bobomiz borligidan faxrlanamiz.

**Maftuna AMIROVA,**  
Toshkentdagi  
60-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi

Bobomning o'ttiz yildan ko'proq umri respublika radio-sida o'tgan. U yerda samarali ishlab, o'nlab yosh ijodkorlarga ustozlik qilgan. Radioda eshittirishlar tayyorlash, tinglovchilarga manzur bo'ladigan mavzularni tanlash, hozirjavob bo'lish kabi xislatlarni o'rgatganlar.

O'zlari tog'li joylarda o'sib-ulg'aygan bo'lganliklari uchunmi, qalblari musaffo, fikrlari teran, tuyg'ulari yuksak. Buvim bilan doimo bizlarni nafaqat erkalatadilar, balki



### Fransua Rable (1494-1553)

Fransua Rable Fransiyadagi Turen viloyatining Shinon shaharchasida advokat oilasida tug'ilgan. Tabobat ilmi bilan shug'ullanib, yangi, ilg'or usullarni ilgari suradi. 1537-yilda tibbiyot fanlari doktori darajasini oladi. Uning «Gargantuya va Pantagryuel» romani mashhurdir.

**Gulnora NURLIPESOVA**  
Qoraqalpog'iston bolalar va o'smirlarining «Jetkinshek» gazetasi Bosh muharriri.  
O'ziga xos ijodkor.  
Quyida uning she'rlaridan namunalar o'qisiz.



### QORAQALPOQ QIZLARI

Pariga mengzar o'zlarin,  
Shirindir aytay so'zlari,  
Boqsa, jon olar ko'zlari  
Qoraqalpog' qizlari.

Qadamida jayron isi,  
Buloqday tiniq kulgusi,  
Shohsanamday har birisi  
Qoraqalpog' qizlari.

Bahodirlar o'yidadir,  
Ishqidadir, ko'yidadir,  
La'li marjon bo'ynidadir  
Qoraqalpog' qizlari.

Boshga balolig'i ozday,  
Jonday suluv, ko'ngli yozday,  
Sog'intirar so'zi nozday  
Qoraqalpog' qizlari.

Oqiladir, dono, chaqqon,  
Bo'yniga dur, marjon taqqan,  
Guloyimday gul-gul boqqan  
Qoraqalpog' qizlari.

Oyul SUYUNDIQOVA  
tarjimai

## QO'LIMIZNI

Ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi, zaif eshituvchi, gapirish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaxshi sharoitlar yaratilgan. Respublikamizda maktab yoshidagi nogironlar uchun 87 ta maxsus internat, «Mehribonlik uy»lari mavjud bo'lib, ular to'la jihozlangan.

Nogiron bolalarni ta'limga o'rgatish bo'yicha respublika ta'lim markazi faol ishlab turibdi. Bunday ta'lim markazlari barcha viloyatlarda mavjud. Ular o'z faoliyatida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O'zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoyalash» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida ishlamoqdalar. Orangizda shunday o'quvchilar borki,



ular nogironlar og'irini yengillashtirish uchun yordamlarini ayamaydilar. Ular holidan xabar olib, bemor o'rtoqlarini o'qishga undaydilar. Maktabga qatnasa, u bilan birga uy vazifasini bajarish, turgan xonasini toza tutish kabi ishlarida yordam beradilar. Ulardan ibrat oling!

Respublika «Sog'lom avlod» nodavlat jamg'armasi tomonidan nogiron bolalarni Olmoniya, Yaponiya kabi davlatlarda davolatish katta samara bermoqda.

Nogiron bolalar ham siz-u biz kabi insonlardir. Keling, ularga yordam qo'lini cho'zaylik!

**Tohir IBRAGIMOV,**  
tibbiyot fanlari doktori

## CHO'ZAYLIK

## BILIMLARIMIZNI BOYITDIK

Biz Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanida joylashgan 11-umumta'lim maktabda tahsil olamiz.

Tarix o'qituvchimiz poytaxtimizdagi Hazrati Imom ziyoratgohiga sayohatga olib bordilar. Sayohat davomida ustozimiz Jo'rabek Polvonov bu yerda joylashgan obidalar tarixi hamda xalifa Usmon davrida tartibga keltirilgan Qur'on to'g'risida ma'lumotlar berdilar.

Biz o'zimizni qiziqtirgan savollarga javob olib, bilimlarimizni yanada mustahkamladik.

O'quvchilarning sayohat davomida olgan bilimlarini sinash maqsadida, 8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida tanlov o'tkazildi. 8-sinf o'quvchilaridan Malika Qahhorova, 9-sinf o'quvchilaridan Xadicha Erkinova, Maftuna Turg'unova va Iroda Toshpo'latovalar g'olib bo'ldilar.

**Gulnoza TO'RAYEVA,**  
8-«B» sinf o'quvchisi

## TABASSUM

(Hikoya)


hayratda qolibdi, osmon jismlari ham jilmayishibdi. Quyosh esa: – Men ham shunday beg'ubor kula olarmikanman? – deb orzu qilarkan, sekin-asta chehrasiga tabassum yoyila boshlabdi. U kulgani sayin borliq yorishib, atrofga yoqimli ovozlari eshitilibdi. Bu holdan sevingan ona farzandining chehrasiga boqib to'ymabdi. Hammayoqda shodlik taronalari yangrabdi. Shunda ona quyoshga qarab: – Ey quyosh, kulaver, nuringdan olam bahra olsin! – deb hayqiribdi. Quyosh esa onaga qulluq qilib: – Go'dakni yaratganing uchun senga tashakkur, chunki kulishni men go'dakdan o'rgandim, omon bo'l, ona, – debdi.

\* \* \*

Uyimizda go'dak bor. U atrofga jilmayib qaraydi, xonaga nur yoyiladi, beg'ubor nur... Ha, uyimizda go'dak bor – quyosh bor. Baxti quyoshday porloq.

**Muqaddas ABDUSAMATOVA**





Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, yaqinda «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» qabul qilinganining 20 yilligini keng nishonladik.

Yurtimizda Siz, aziz bolajonlarning huquqlaringizni himoya qilish masalasi Davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan va bu borada bir qator Davlat dasturlari qabul qilingan. «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning maqsad-mohiyati haqidagi tushunchangizni boyitish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi a'zosi Olimjon O'SAROV bilan suhbatlashdik:



Navoiy viloyati, Navbahor tumanidagi 18-umumta'lim maktabida 300 nafar ilmga chanqoq o'g'il-qizlar tahsil olishadi. Ularning puxta bilim olishlari uchun bilim maskanida barcha sharoitlar yaratilgan. Kompyuter xonasidagi 15 ta kompyuter o'quvchilar ixtiyorida.

Suratda: 7-8-sinf o'quvchilari ustozlari Rustam Yahyoyev ko'magida kompyuter bilimdoni bo'lishga intilishyapti.

Husnaboy AVVALOV o'lgan suratlar



# Bolaning begonasi bo'lmaydi

– Xalqimiz bolajon el. Har bir ota-ona farzandimning kamolini ko'rsam, deb yashaydi. Shu nuqtayi nazardan «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi Qonun xalqimizning ezgu qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda uning yanada takomillashuviga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur Qonunni qabul qilishdan

1 qism

7-modda

1. Bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan atalish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha o'z ota-onasini bilish va ularning g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlarini olishga haqli hisoblanadi.

Ishtirokchi-davlatlar bunday huquqlar o'z milliy qonunchiliklariga muvofiq amalga oshirilishini, ularning majburiyatlari shu sohaga tegishli xalqaro hujjatlarga asosan, xususan, bola boshqa fuqarolikka ega bo'lmagan taqdirda bajarilishini ta'minlaydilar.

ko'zlangan asosiy maqsad, bolalarni, shu jumladan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy hamda huquqiy himoya qilishning amaldagi tizimi samaradorligini oshirishdan iborat. Qonunning o'ziga xos xususiyati shundaki, u bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bola huquqlarining barcha asosiy va qo'shimcha kafolatlari o'zida mujassam etadi hamda mustahkamlaydi. Unda bola huquqlarini ta'minlash sohasidagi qator muhim tushunchalar, xususan, «yetim bola», «jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola», «ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola», «ijtimoiy himoyaga muhtoj bola», «nogiron bola» tushunchalari mujassam.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha Davlat siyosatining asosiy

yo'nalishlari 4-moddada belgilab qo'yilgan. Bunday yo'nalishlar sirasiga bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, uning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bolalar huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlash, voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va boshqalar kiradi.

Qonunda bolaning yashash huquqi, himoyaga bo'lgan huquqi, g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalani huquqi, oilaviy muhitga bo'lgan huquqi, o'z fikrini ifoda etish huquqi kafolatlari, shuningdek, bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari hamda boshqalar qat'iy belgilab berildi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy aytganlaridek, «El netib topgay menikim, men o'zimni topmasam». Darhaqiqat, bola o'zini yoshligidan tanib, huquqlarini bilib ulg'aysa, tezroq mahallasini taniydi, qalbida yurtiga muhabbat uyg'onadi va eng asosiysi, befarq bo'lmaydi.

Bola huquqlari himoyasi, shuningdek, oila, fuqarolik, mehnat, jinoyat kodekslari va boshqa qonunlar bilan ham himoyalani.

majmuaviyligidadir: mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bola huquqlarining asosiy va qo'shimcha kafolatlari mustahkamlaydi. Uni «Bolalar Konstitutsiyasi» deyish



mumkin.

Bola huquqlarining asosiy kafolatlari deb bola huquqlarining qonuniy kafolatlari, bola tarbiyalanayotgan oilaning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, bolaning yashash, shaxsiy daxlsizlik, sog'lig'ini saqlash kabi qator huquqlari kafolatlari belgilangan.

**Yashash huquqi** – bu bebaho ne'mat, qolgan hamma huquq va erkinliklar shundan kelib chiqadi.

Bolaning yashash huquqlari umumiy xarakterga ega bo'lib, bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga

bo'lgan huquqi kafolatlari (9-modda), bolaning oilaviy muhitga bo'lgan huquqi kafolatlari (13-modda) kabi qator kafolatlar bilan ta'minlanadi.

Bolaning yashash huquqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sog'lig'ini saqlash huquqi kafolatlari ham bor. Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi kafolatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

•tibbiy yordamini olish huquqi bilan (22-modda);

•dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi kafolatlari bilan (21-modda);

•turar joyga bo'lgan huquqi kafolatlari (19-modda) va hokazo.

**Har bir bola bilim olish, jumladan, bepul majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi olish huquqiga ega.**

Har bir ota-ona o'z farzandi uchun yashashni hayotning bosh mezonini deb biladi. Shuningdek, ular qo'ni-qo'shnilarining farzandlari, mahalla bolasining tarbiyasiga ham befarq emaslar. Bolaning begonasi bo'lmaydi, bir bolaga yetti qo'shni ota-ona kabi hikmatli iboralar shundan kelib chiqqan bo'lsa, ajabmas.

Darhaqiqat, bolangiz tug'ilgan ilk kundanoq mahalla ahlining nazarida bo'ladi: ularning ko'z o'ngida ulg'ayadi.

Yaxshi ish qilsa, maqtashadi, xato qilsa, tuzatishadi. Bola oilada o'rganmaganini mahalladan o'rganadi, tahlil qiladi.

Xalqimizning ana shunday ajoyib xislatlarini e'tirof etgan holda ta'kidlash kerakki, yurtimizda hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi. Uning shu zaminga munosib farzand bo'lib kamol topishida, buyuk ajdodlarimizning izdoshlari bo'lib tarbiyalanishida nafaqat ota-ona, balki qo'ni-qo'shni, butun mahalla o'zini mas'ul deb biladi. Shu ma'noda «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi ana shu e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

**Feruza JALILOVA yozib oldi**



# SHUNDAY UCHRASHUV BO'LDI



Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyida yozuvchilar, shoirlar, aktyor-u qo'shiqchilar bilan tez-tez uchrashuvlar bo'lib turadi.

Navbatdagi uchrashuv iste'dodli shoir Muhammad Ismoil, «Nihol» mukofoti laureati Otabek Mutalxo'jayev, telejurnalist, kinoshunos Feruza Nodirovalar bilan bo'lib o'tdi. Shoir Muhammad Ismoil o'zbek adabiyotida yaratilayotgan asarlar, she'ring yozilishi, yoshlar qanday asarlarni sevib o'qishlari, ularning kitobxonlikka qiziqib borayotganliklari haqida ma'ruza qildi. «Chiroylisan tengi yo'q», «Sahroyi gullar», «Bahorning eng so'nggi lolasi», «Ko'ksimni kuydirgan alanga» kabi asarlari, «Mohinur», «Oy chiqmagan oqshom», «Yangi oy chiqqan kecha» kino-

ssenariylarining yaratilishi haqida so'zladi. Asarlaridan o'quvchilarga taqdim etdi. Yangi she'rlaridan o'qib, yoshlarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

«Nihol» mukofoti laureati Otabek Mutalxo'jayevning kino, qo'shiqchilik san'atiga kirib kelishi haqida Feruza Nodirova so'zlab berdi. Uning «Sevar yorim», «Shunaqa», «Mayli-mayli» kabi ko'plab qo'shiqlari muxlislar ko'nglidan joy oldi. Uchrashuv so'nggida yangi qo'shiqlaridan ijro etgan Otabekni dastxat yozdirib olish ilinjidagi bolajonlar o'rab olishdi.

Nazira JO'RAYEVA

O'qi, qiziq!

## TAROQNING TARIXINI BILASIZMI?


Biz har kuni ishlatadigan buyumlardan biri taroqdir. Uning qanday paydo bo'lgani, tarixi haqida bilasizmi?

Birinchi taroqlar deb baliq skeletlarini aytish mumkin. Qadimgi taroqlardan biri qadimiy Rum hududida olib borilgan qazish ishlari davrida topilgan. U hayvon suyagidan yasalgan bo'lib, ushlaydigan dastasi va sakkizta tishi bor edi. Keyinchalik taroqlar daraxt, korall, fil suyagi, toshbaqa kosasi, turli hayvon shoxlaridan yasala boshlandi. Bu xom ashyolar selluloid kashf qilinguncha, ya'ni 1879-yilgacha qo'llanilgan.

Yana bir ma'lumot: sochlarimizni taroq bilan tarash tashqi ko'rinishimizni tartibga keltiribgina qolmay, boshga o'ziga yarasha uqalash (massaj) bo'lib ta'sir qilargan. Bosh miya tomirlaridagi qon aylanishi yanada yaxshilanishi shifokorlar tomonidan ilmiy asoslangan.

DILOROM tayyorladi

## «BAXT VA SHODLIK KUYCHISI» AYLANMA KROSSVORDI



Shaklda belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida:

1. Hamid Olimjon tavallud topgan shahar.
2. Atoqli shoir tomonidan nashrga tayyorlangan atoqli baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li ijodiga mansub xalq dostoni.
3. Hamid Olimjonning bolaligida etaklar aytib berib, xalq og'zaki

ijodiga havas uyg'otgan volidasi.

4. Ilk she'riy to'plami nashri.
5. Yaqin o'tmishdan bir lavha sifatida yozilgan «Jinoyat» lirik dramasi qahramoni.
6. Hamid Olimjon tomonidan she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilingan ingliz shoiri.
7. Shoirming 1940-yilda nashr etilgan to'plami.

8. Shoir yashab faoliyat olib borgan shahar.

9. Fashizmga qarshi urush yillarida yozgan sevgi, sadoqat hamda hijron mazmunidagi she'rlaridan biri.
10. Qish manzarasi tasvirlangan asar.
11. Hamid Olimjonning Vatanimiz mustaqilligi yillarida nashr

etilgan she'riy to'plami.

12. Shoirming xalqimiz, ona diyor uchun olib borgan ezgu faoliyati.

13. Xalqimizning ardoqli shoirasi, Hamid Olimjonning umr yo'ldoshi.

14. Jangchi yigitga bag'ishlangan she'ri.

15. Yil fasli bayon etilgan asari.

16. Shoir o'zbek tiliga tarjima qilgan M.Yu. Lermontov asari.

17. Yoshlik chog'larini xotirlab yozgan she'ri.

18. Shoir xotirlagan rus adibi, «Toshkent – non shahri» asari muallifi.

19. Fashizmga qarshi urush yillari yozilgan «Izingni o'padi sog'ingan yerlar, ...» satri bilan boshlanuvchi she'r.

20. «Muqanna» tarixiy dramasi qahramoni.

21. Nasriy asar janri.

22. Hamid Olimjon asarlarini nashrga tayyorlagan ijodkorlardan biri.

23. A.S. Pushkinning Hamid Olimjon ona tilimizga tarjima qilgan asar nomi: «... asiri».

24. Hamid Olimjon yoshligidan asarlarini o'rgangan, ilmiy maqolalar yozgan hamda «... o'zbek tilining asoschisi» deb ta'riflagan mumtoz mutafakkir shoir.

25. Mashhur dostonlaridan birining bosh qahramoni.

26. Xalq og'zaki ijodi asosida yozgan sevgi, sadoqat dostoni qahramoni, Oygulning yori.

## MUAMMONOMA

Avvalo, quyida ta'riflanib, raqamlarda yashiringan Hamid Olimjon asarlari asosidagi kalit so'zlarni toping.

1. Ijodkorning ona Vatanimiz madhiga bag'ishlangan lirik she'ri – 9, 14, 7, 10, 5, 2, 20, 11, 1, 16.

2. Shoirming bahor fasli manzaralari ifodalangan, o'zbek lirikasining yuksak namunalaridan hisoblanuvchi she'ri – 9, 13, 2, 5, 19, 18, 3, 3, 6, 19, 6, 16, 4, 6.

3. To'rt parda, sakkiz ko'rinishli tarixiy dramasi qahramoni – 19, 18, 3, 1, 15, 2, 16.

4. Hikoyalar to'plami nashri – 11, 1, 16, 19, 12, 6, 7, 6, 4, 6, 21, 2.

5. Shoirming «Osmonlarni to'ldirib...» satri bilan boshlanuvchi bolalarga bag'ishlangan she'ri – 20, 6, 8, 1, 3, 15, 1, 11.

6. Fashizmga qarshi mardona jang olib borishga chaqiruv mazmunidagi she'r – 17, 6, 11.

7. Bolalarga atab yozilgan quyidagi to'rtlik bilan boshlanuvchi she'r:

*Shodligim ko'kka sig'mas,  
Bitmas baxtim bor manim.  
Meni baxtiyor qilgan  
Shu yengilmas Vatanim - 20,  
6, 11, 6, 16.*

Endi shakl atrofida va o'rta qismidagi raqamlarni kalit so'zlari javoblaridagi harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Shunda shoir qalamiga mansub to'rt misra she'rni bilib olasiz. Ushbu satrlar atoqli ijodkorning qaysi she'ridan keltirilganligini toping-chi?

Foziljon ORIPOV tuzdi

BOSH MUHARRIR:  
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Gulyuz ORIFJONOVA,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 25757  
Buyurtma N: J 8575

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.